**ANDIJON VILOYATI XO‘JAOBOD TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 25-dekabr | 341-1-27-Q/24 | Xo‘jaobod tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida” gi Qonunining 39-moddasi (O‘RQ 642-son 20.10.2020yil), O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida” gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son 31.05.2019 yil) buyrug‘iga asosan “ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni kvotalangan son dan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish xaqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash” ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun, asosan tumanda 2025 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,**

**QAROR QILAMAN :**

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kammiqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2025 yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

1.2. - ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 3575 nafarini tashkil etadigan 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

- yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘pbolali ota-onalar uchun 1,7 foiz (60 ta ish o‘rni);

- ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun 1,7 foiz (62 ta);

- "Mehribonli" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta`lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta`lim olgan bitiruvchilari 0,34 foiz (12 ta);

- muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 0,30 foiz (8 ta);

- nogironlar uchun 3 foiz (95 ta ish o‘rni, yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda ushbu toifadagi shaxslar murojaat qilmagan taqdirda, kelgusida bitiruvchilar uchun band etib qo‘yilsin);

- Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan fuqarolar uchun 0,08 foiz (3 ta);

- jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy harakterdagi majburiy chora ko‘rilgan shaxslar uchun 0,08 foiz (3 ta);

- Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar uchun 0,01 foiz (2 ta);

- Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabrlanganlar 0,11 foiz (4 ta) miqdorida ish o‘rinlari zahirasini belgilaydi.

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlar siz bajarilishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak,

Shu jumladan:

- yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarini tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

- ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari; nogironlar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligini ahvoliga mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

- "Mehribonli" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta`lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta`lim olgan bitiruvchilari Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashishda ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

- Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabirlanganlar miqdorida ish o‘rinlari zahirasini belgilaydi;

- Jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar uchun ularning kasbi bo‘yicha tayyorgarlik hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

- Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

3. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar: Muxandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik va avto aravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

4. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga quyidagi vazifalar topshirilsin: 2020 yil 20 oktyabrdagi O‘RQ-642-sonli O‘zbekiston Respublikasi Axoli bandligi to‘g‘risidagi Qonunining “Ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ish

o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 39-moddasiga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlash;

- 2025 yil boshlangunga qadar 10 kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini tayyor bo‘lishi ta’minlansin, ushbu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ga yil boshlangunga qadar axborot berilsin;

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobayni da ta’minlansin, bu to‘g‘rida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limiga 1-chorak tugagandan keyin 10 kundan kechikmay axborot berish;

- Tashkilotlar har chorakda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yuqorida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etish;

- Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarning belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmaganligi ham va amalda ularning tayyor emasligi ham mehnat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

5. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq jarima solinishi uqtirib o‘tilsin.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.Ergashev) bir hafta muddatda ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Ushbu qaror 2025 yil 1 yanvardan kuchga kiritilsin.

9. Tuman “Xaqiqat” gazetasi muharriri (T.SHermatov)ga qarorni rasmiy e’lon qilish tavsiya etilsin va hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023 yil 11 noyabrdagi №129-1-27-Q/23 sonli qarori hamda 2024 yil 25 oktabrdagi №308-1-27-Q/24 sonli qarori 2025 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yuqotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i Z.Ergashev zimmalariga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **J.Bozorboyev**

Xo‘jaobod tuman hokimining
2024-yil 25-dekabrdagi
341-1-27-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya**

**TARKIBI**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | **A.Mirzaolimov** | - | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, *ishchi guruh raisi* |
| | | | |
| 2. | **Z.Ergashev** | - | Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi rahbari |
| 3. | **D.No‘monova** | - | Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi Ishga joylashtirish va ishsizlarni xisobga olish bo’imi bek ofis bosh mutaxasisi |
| 4. | **N.Mamasoliyeva** | - | Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi davlat mehnat huquq inspektori |
| 5. | **J.Ibragimov** | - | Tuman Ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari |
| 6. | ***Lavozimiga ko‘ra*** | - | Mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari |
| 7. | **X.Primov** | - | Tuman hokimligi moliya iqtisodiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha bosh mutaxassisi, *komissiya kotibi* |

Xo‘jaobod tuman hokimining
2024-yil 25-dekabrdagi
341-1-27-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Andijon viloyati Ho'jaobod tumanda 2025 yil davomida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan ish o‘rinlarining**

**T A Q S I M O T I**

| № | Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi | Ularda ishlovchilar soni | Band qilingan ish o‘rinlari soni * | | Shundan | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar | | umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini , kasb-xunar kollejlarini xamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar | | "Mehibonlir" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta`lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta`lim olgan bitiruvchilari | | muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar | | Nogironligi bo`lgan shaxslar | | Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar | | jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar | | Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar | | Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabirlanganlar | |
| | | | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % |
| **Xo'jaobod tumani bo‘yicha jami** | | **3575** | **249** | 7,0 | **60** | 1,7 | **62** | 1,7 | **12** | 0,34 | **8** | 0,30 | **95** | 3 | **3** | 0,08 | **3** | 0,08 | **2** | 0,06 | **4** | 0,11 |
| 1 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 64 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 0 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 2 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 62 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 |
| 3 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 45 | 2 | 7 | 0 | 0,3 | 0 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 4 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 54 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 5 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 45 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 0 | 0,3 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 6 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 44 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 7 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 50 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 8 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 60 | 4 | 7 | 1 | 0,2 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 |
| 9 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 40 | 3 | 7 | 1 | 0,4 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 10 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 45 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 11 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 56 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 |
| 12 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 58 | 4 | 7 | 1 | 0,2 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 13 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 44 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 14 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 43 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 15 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 38 | 3 | 7 | 1 | 0,4 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 16 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 33 | 2 | 7 | 1 | 0,4 | 0 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 17 | Xo‘jaobod tumani XTB bo‘limi 20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi | 41 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |

| № | Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi | Ularda ishlovchilar soni | Band qilingan ish o'rinlari soni * | | Shundan | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yolg'iz ota, yolg'iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar | | umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini , kasb-xunar kollejlarini xamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar | | "Mehibonlir" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta'lim olgan bitiruvchilari | | muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar | | Nogironligi bo`lgan shaxslar | | Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar | | jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar | | Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar | | Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabirlanganlar | |
| | | | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % |
| 18 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 52 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 19 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 20 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 21 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 43 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 22 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 30-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 41 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 23 | Xo'jaobod tumani XTB bo'limi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi | 48 | 3 | 7 | 0 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 24 | Xo'jaobod tuman 4-son maxsus maktab internati | 57 | 4 | 7 | 0 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 3 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 25 | Xo'jaobod tuman 17-kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat talim muassasasi | 85 | 6 | 7 | 1 | 0,3 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 2 | 0,2 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 26 | Xo'jaobod tuman zaif eshitvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat talim muassasasi | 85 | 6 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,2 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 2 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 |
| 27 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 1-MTM | 38 | 3 | 7 | 1 | 0,4 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 28 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 2-MTM | 35 | 2 | 7 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 29 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 4-MTM | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 30 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 5-MTM | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 31 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 8-MTM | 21 | 1 | 7 | 0 | 0,7 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 32 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 9-MTM | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 33 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 11-MTM | 28 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 34 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 12-MTM | 20 | 1 | 7 | 0 | 0,7 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 35 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 15-MTM | 28 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 36 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 16-MTM | 31 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |

| № | Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi | Ularda ishlovchilar soni | Band qilingan ish o'rinlari soni * | | Shundan | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yolg'iz ota, yolg'iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar | | umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini , kasb-xunar kollejlarini xamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar | | "Mehibonlir" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta`lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta`lim olgan bitiruvchilari | | muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar | | Nogironligi bo`lgan shaxslar | | Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar | | jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar | | Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar | | Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabirlanganlar | |
| | | | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % | Soni | % |
| 37 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 17-MTM | 20 | 1 | 7 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,7 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 38 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 20-MTM | 30 | 2 | 7 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 39 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 21-MTM | 32 | 2 | 7 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 40 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 22-MTM | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 41 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 23-MTM | 30 | 2 | 7 | 1 | 0,5 | 0 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 42 | Xo'jaobod tumani MT bo'limi 25-MTM | 32 | 2 | 7 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 43 | Xo'jaobod tumani 74-IDMI | 33 | 2 | 7 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 44 | Tuman Tibbiyot birlashmasi | 450 | 19 | 7 | 3 | 0,2 | 3 | 0,3 | 2 | 0,1 | 2 | 0,1 | 5 | 0,2 | 1 | 0,1 | 2 | 0,1 | 0 | 0,0 | 1 | 0,0 |
| 45 | Xo'jaobod tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabi | 45 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 46 | Xo'jaobod tuman irrigatsiya bo'limi | 30 | 2 | 7 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 47 | Xo'jaobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | 55 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 48 | Xo'jaobod tuman Davlat Sanitariya Epidemiologiya nazorat markazi | 45 | 3 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 49 | Xo'jaobod tuman Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi | 29 | 2 | 7 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 50 | "Navigul" O'zbekiston-Germaniya q/k | 55 | 4 | 7 | 0 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 2 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 |
| 51 | Maxsus tibbiy Baza | 40 | 3 | 7 | 1 | 0,4 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 52 | "Tilovul tekstil" MCHJ | 40 | 3 | 7 | 1 | 0,4 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,4 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 53 | "Nil-granit " MCHJ | 280 | 26 | 7 | 4 | 0,2 | 4 | 0,2 | 2 | 0,1 | 1 | 0,1 | 13 | 0,3 | 1 | 0,1 | 1 | 0,1 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 54 | "CRISTAL COLLER" MCHJ | 80 | 6 | 7 | 2 | 0,4 | 2 | 0,4 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 55 | "Xo'jaobod Turon tekstil" MCHJ | 50 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 56 | "Xo'jaobod Fazo" MCHJ | 200 | 21 | 7 | 4 | 0,3 | 9 | 0,3 | 1 | 0,1 | 1 | 0,1 | 6 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |

| № | Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi | Ularda ishlovchilar soni | Band qilingan ish o'rinlari soni * | | Shundan | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yolg'iz ota, yolg'iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar | | umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-xunar maktablarini , kasb-xunar kollejlarini xamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar | | "Mehibonlir" uylarining bitiruvchilari shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo`yicha ta'lim olgan bitiruvchilari | | muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar | | Nogironligi bo`lgan shaxslar | | Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar | | jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar | | Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar | | Oilaviy (maishiy) zo`rovonlik natijasida jabirlanganlar | |
| | | | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** | **Soni** | **%** |
| 57 | "Xo'jaobod Fayz-M" MCHJ | 190 | 13 | 7 | 3 | 0,2 | 3 | 0,3 | 2 | 0,2 | 0 | 0,0 | 5 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 58 | "MEGA INNOVATSION INSHOAT" MCHJ | 50 | 4 | 7 | 1 | 0,3 | 2 | 0,6 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 59 | "RAVNAQ TEX" MCHJ | 60 | 4 | 7 | 1 | 0,2 | 2 | 0,5 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,2 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 60 | "MEGA BARAKA" MCHJ | 40 | 3 | 7 | 0 | 0,0 | 2 | 0,7 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |
| 61 | "Oliy Standart" MCHJ | 45 | 3 | 7 | 2 | 0,3 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 1 | 0,3 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 | 0 | 0,0 |